

F.T. TEMIROV

**KO'P TARMOQLI FERMER
XO'JALIKLARIDA BUXGALTERIYA
HISOBINI TASHKIL ETISHNI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**



654.5

739.


**O'ZBEKISTON RESRUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

F.T.TEMIROV

**KO'P TARMOQLI FERMER
XO'JALIKLARIDA BUXGALTERIYA
HISOBINI TASHKIL ETISHNI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

(Monografiya)



TOSHKENT- 2023

UO'K:657:631.1

KBK 65.052

T 39

**F.T.Temirov. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida
buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish
yo'llari. (Monografiya). –T.: «Innovatsion rivojlanish
nashriyot-matbaa uyi», 2023. –160 bet.**

ISBN 978-9910-01-038-5

Ushbu monografiyada ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Monografiyada keltirilgan takliflar va tavsiyalardan ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi faoliyatida foydalanish, buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish uchun zarur ma'lumotlarni shakllantiradi. Bu esa ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish uchun zarur axborot bilan ta'minlaydi.

UO'K:657:631.1

KBK 65.052

Taqrizchilar:

N.B. Abdusalomova – i.f.d., professor;

N.Sh. Xajimuratov – i.f.d., professor.

*Mazkur monografiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Kengashining 2023-yil 4-iyuldagi 11- sonli qaroriga asosan nashrga
tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9910-01-038-5

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023.

KIRISH

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masalaning yechimi dunyo amaliyotida bevosita qishloq xo'jaligi va uning rivojlantirishiga bog'liq. Dunyoda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholiga oziq-ovqat etkazish bilan birga sanoatning yetakchi tarmoqlarini ham xomashyo bilan ta'minlab turadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, «dunyo yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jalik sektorining ulushi o'rtacha 5,6 % atrofida bo'lib, turli mamlakatlar bo'yicha hisobga olinganda 0,03 foizdan (Singapur) 55 foizgacha (Serra Leone) oraliqni o'z ichiga oladi»¹. Mamlakatlarning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuvi, iqlim sharoiti va boshqa bir qancha o'ziga xos xususiyatlar turli davlatlarda turlicha ko'rsatkichlarni ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida qishloq xo'jaligi sektori qishloq aholisini ish bilan ta'minlashda ham asosiy o'rinni egallaydi. Bu esa fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish muhimligini oshiradi.

Jahonda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetishtirilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish, saqlash va yetkazib berishni takomillashtirish, bir tarmoq uchun chiqindi yoki ikkilamchi mahsulot hisoblangan qiymatliklardan boshqa yaqin tarmoq korxonasi tomonidan foydalanish, tarmoqlar o'zaro birlashishi evaziga ko'p tarmoqli faoliyatni tashkil etish orqali yo'qotishlarni kamaytirish, elektron qishloq xo'jaligi strategiyasini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligiga innovatsiyalarni kiritish orqali kamxarj va yuqori samaradorlikka erishish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, dunyo amaliyotida bir-biriga yaqin bo'lgan qishloq xo'jaligi tarmoq korxonalarining

¹ https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/share_of_agriculture/

birlashishi evaziga ko'p tarmoqli faoliyatning vujudga kelishi natijasida ulardagi o'zaro hisob-kitob munosabatlari, shartnomalar va ichki hujjatlarni yuritish, axborot almashishlar tashkil qilish amaliyotini yanada takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bu sohada yuqori samaradorlikka erishish asosiy maqsad qilib olindi. 2021-yilgi Davlat dasturida ham qishloq xo'jaligida ekinlar hosildorligini va samaradorlikni oshirish bo'yicha «kooperatsiyalar tashkil etish, ularda yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish, daladan bozorga yetkazib berish va eksportni amalga oshirish tizimini joriy etish»² singari vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar mamlakatimizda asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirib beruvchi fermer xo'jaliklari tomonidan mahsulot yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, shu bilan birga eksport faoliyatini ham amalga oshirish zaruratini keltirib chiqarib, bir necha tarmoq fermerlarining birlashib, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bois, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida ko'zda tutilmagan xarajatlar hisobini yuritish, debitor va kreditorlar bilan hisoblashishlar hamda ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha hujjatlashtirish, tarmoq xususiyatini e'tiborga olgan holda xarajatlar hisobini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi.

I BOB. IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINING TUTGAN O‘RNI VA ULARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Iqtisodiyot tarmoqlarida qishloq xo‘jaligining tutgan o‘rni va rivojlanish tendensiyalari

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida hukm surayotgan global iqtisodiy inqiroz nafaqat mamlakatlar iqtisodiyotiga jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda, balki ularda oziq-ovqat tanqisligi, dunyo aholisini qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirishda jiddiy qiyinchiliklarga uchramoqda. Bunday sharoitda dunyo mamlakatlari o‘rtasida tovar mahsulotlari aylanmasi nomo‘tadil ko‘rinishga kelib qoldi. Bu holat bevosita O‘zbekiston iqtisodiyotiga, xususan qishloq xo‘jaliga tarmog‘iga ham ta’sir ko’rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlab o‘tganlaridek, “Pandemiya jahon iqtisodiyoti uchun – shunga e’tibor bering – har oyda qariyb 400 milliard dollar miqdorida zarar keltirmoqda. Bugungi kunga qadar dunyo bo‘yicha 500 millionta ish o‘rni yo‘qotilgan.

Afsuski, bu ofat butun insoniyat qatori xalqimiz uchun ham kutilmagan tashvish va murakkab muammolarni keltirib chiqardi.”³ Bu murakkab sharoitda nafaqat jahon iqtisodiyoti, balki dunyo mamlakatlari qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga ham jiddiy ta’sir

ko’rsatmoqda. Bu esa dunyo mamlakatlari, jumladan mamla-
katimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqish, pandemiyadan keyingi davrlarda ularni

³<https://prezident.uz/uz/lists/view/4057>

yanada rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ulushi 2022-yilda 4,2%ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichni dunyo mamlakatlari hamda geografik hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak 2022-yilda eng katta ulush Osiyo mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelganligiga guvoh bo'lamiz (1.1-jadval).

1.1-jadval

Dunyoda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi (2022-yil)⁴

No	Geografik hududlar	mlrd. doll.	ulushi, %da
Dunyo bo'yicha		3 515.2	100
Shundan:			
1	Osiyo	2 243.7	63.8
2	Amerika	473.9	13.5
3	Afrika	385.2	11.0
4	Yevropa	368.3	10.5
5	Okeaniya	44.0	1.2

1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2022-yilda dunyo mamlakatlari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining qariyb 64 %i Osiyo mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Yevropa mamlakatlari ulushi esa 10,5 %ni tashkil qilmoqda. Dunyoda eng kam ulush Okeaniya mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich 1,2 %ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, dunyo aholisini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashda Osiyo mamlakatlari alohida o'rin tutadi.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining yana bir ahamiyati, ular tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar dunyo aholisining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish bilan birga mamlakatlar sanoat tarmoqlari rivojlanishida

⁴www.bc5biz/makroekonomika/agriculture/asia.html

ham alohida o‘rin tutadi. Quyidagi jadvalda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dunyoda yetakchi hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi keltirilgan (1.2-jadval).

1.2-jadval

Mamlakatlar tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi⁵ (jamiga nisbatan %da)


O‘rni	Mamlakatlar	Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. doll.	Ulushi, %da
1	Xitoy	1 064.9	30.3
2	Xindiston	463.9	13.2
3	AQSH	175.4	5.0
4	Indoneziya	142.3	4.0
5	Nigeriya	103.9	3.0
6	Braziliya	82.0	2.3
7	Rossiya	59.5	1.7
8	Yaponiya	59.3	1.7
9	Eron	58.4	1.7
10	Pokiston	55.2	1.6
25	Germaniya	27.9	0.79
36	Gollandiya	14.9	0.42
37	O‘zbekiston	14.8	0.42
48	Qozog‘iston	8.1	0.23
78	Turkmaniston	4.2	0.12
114	Tojikiston	1.7	0.049
131	Qirg‘iziston	1.0	0.029

1.2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, dunyo mamlakatlari orasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda Xitoy (30,3 %), Hindiston (13,2 %) hamda AQSH (5,0 %) mamlakatlari yetakchi o‘rinlarda turibdi. Markaziy Osiyo davlatlariga

⁵www.be5biz/makroekonomika/agriculture/asia.html

e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular orasida O'zbekiston 37-pog'onada bormoqda. O'zbekiston tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 0,42 %ni tashkil qilgan. Keyingi pog'onalarda Qozog'iston (48-pog'ona), Turkmaniston (78-pog'ona), Tojikiston (114-pog'ona) hamda Qirg'iziston (131-pog'ona) egallagan. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchi o'rinda borayotganligi quvonarli albatta, lekin O'zbekiston Respublikasining salohiyati bundanda yuqoriligini hisobga olgan holda hukumatimiz tomonidan keyingi yillarda ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish, sohaga yangi texnika va texnologiyalarni keng joriy qilish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. Buning natijasida yaqin yillarda dunyo mamlakatlari orasida o'zining pozitsiyasini yanada yaxshilashi borasida soha mutaxassislari tomonidan izlanishlar olib borilmoqda.


Bundan tashqari, tadqiqotlar ko'rsatishicha, qishloq xo'jaligi tarmog'i dunyoda istiqomat qilayotgan aholilarning qariyb 1 milliarddan ortiq iqtisodiy faol aholining bandligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga mamlakatlarning milliy daromadlari manbayi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.



1.1-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti tarkibi⁶.

⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakat yalpi ichki mahsulotlari tarkibida 2011-yilda qishloq xo'jaligi 35,9 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich 28,1 %ni tashkil qilmoqda. 2015 – 2019-yillarda YAIM tarkibida o'sish tendensiyasiga ega tarmoq sanoat hisoblanadi. Ushbu tarmoq 2011-yilda 23,9 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilga kelib 36,4 %ga yetgan. Albatta bu ko'rsatkichlardan keyingi yillarda qishloq xo'jaligi tarmog'ida mahsulot yetishtirish hajmi keskin pasayish tendensiyasiga erishgan bo'lsa-da, ular tomonidan ishlab chiqarish hajmi ortib borganligiga guvoh bo'lamiz (1.2-rasm).



1.2-rasm. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan foizda.⁷

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2011-yildan to 2020-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. 2011– 2019-yillarda qishloq xo'jaligining YAIMdagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da (1.1-rasm), buni mamlakatning YAIM miqdori 2011– 2019-yillarda o'sganligi bilan izohlash mumkin.

ishlab chiqilgan.

⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qishloq xo'jaligi 2022-yilda O'zbekiston YAIMning 26.8 foizini tashkil etdi. Bu sohada mehnatga layoqatli aholining 27 foizi, yoki 3,6 mln. kishidan ortiq kishi band hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti 10 foizni tashkil etib, mamlakat eksport daromadida muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, COVID-19 koronavirus pandemiyasi sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalari YAIMdagi ulushi 2020-yilda 28,2 foiz, 2021-yilgi prognoz 26,6 foizni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.⁸

Quyidagi 1.3-jadvalda O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2015–2020-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning asosiy ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan.

1.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning asosiy ko'rsatkichlari⁹

Ko'rsatkichlar	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, mlrd. so'm	99604,6	115599,2	148199,3	187425,6	216283,1	249754,5
Shu jumladan:						
dehqonchilik	55429,2	61755,1	83303,4	98406,4	111904,8	123556,0
chorvachilik	44175,4	53844,1	64895,9	89019,2	104378,3	126198,5
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	106,1	106,3	101,0	100,2	103,3	102,8
Shu jumladan:						
dehqonchilik	105,5	105,7	98,2	95,8	104,8	103,4
chorvachilik	106,9	107,0	104,1	105,7	101,6	102,1

⁸2021- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 1-dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 18-dekabrda ma'qullangan.

⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi 2015-yilda 99604,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020-yilga kelib, 249754,5 mlrd. so'mni tashkil qilganligiga guvoh bo'lish mumkin. 2020-yilda 2015-yilga nisbatan qariyb 2,5 marta oshganligi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, bugungi iqtisodiy sharoitda, aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarining ortib borishi natijasida ushbu tarmoqni yanada modernizatsiya qilish, yangi texnika va texnologiyalarni keng joriy qilish, zamonaviy ishlab chiqarishni tatbiq qilish, huquqiy, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash dolzarbligicha qolmoqda

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bozorlarining rivojlanishi korxonalarga tahdid solishi mumkin bo'lgan qator manbalar va ularga qonun asosida qarshilik ko'rsatishning amaliy imkoniyatlari mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Ta'kidlash lozimki, jinoiy faoliyatni "intellektuallashtirish" jarayoni, uning doirasida barcha yanada murakkab moliyaviy-texnik axborotdan hamda tinglash, kuzatish, hujjatlarni qalbakilashtirish, texnika vositalaridan foydalanish va boshqalar qayd etilmoqda. Turli ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kichik tadbirkorlikda "xufyona" iqtisodiyotning ulushi kichik tadbirkorlik subyektlari, jumladan fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarning real aylanmasining 30 foizidan 50 foizigachasini tashkil qiladi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tadbirkorligini rivojlantirish uchun ularga moliyaviy mustaqillik berish hamda uning investitsion funksiyasini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik tuzilmalari o'z faoliyatini amalga oshirish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va kengaytirish uchun

zarur bo'lgan barcha resurslarning safarbar etilishini ta'minlashga qodir bo'lishlari lozim. Ular resurslardan oqilona foydalanishni, sarmoyaning tez harakatlanishini ta'minlashlari, foydani qayta investitsiyalashlari kerak.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasida hozirgi pandemiya sharoitidan chiqarish va barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratishning asosiy sharti hisoblanadi.

Barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Chunki tadbirkorni:

- tijorat asosida yangi texnologiyalarni, ishni tashkil etishning yangi shakllarini joriy etuvchi tashabbuskor;

- foyda olish maqsadida ishlab chiqarish omillarini tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning yagona jarayoniga birlashtirish tashabbuskori;

- firma faoliyatining yo'nalishlarini, strategiyasini belgilab beruvchi va ularning muvaffaqiyati uchun javobgarlik yukini o'z zimmasiga oluvchi ishlab chiqarish tashkilotchisi;

- xatardan qo'rqmaydigan va oldinga qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida ongli ravishda xatarga qo'l uruvchi inson sifatida ta'riflash mumkin.

Tadbirkorning barcha ushbu xususiyatlari, pirovardida, jamiyat boyligini ko'paytirishga, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirkorlik ishining mohiyatini tashkil qiladi.

Bu borada mamlakatimizda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-oktabrdagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

RF-5199-sonli Farmoni qabul qilinishi ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning huquqiy asosini yaratib berdi. Bunday xo'jaliklarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini kuchaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Ushbu Farmonga asosan quyidagilar fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning hozirgi bosqichdagi ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan, jumladan:

birinchidan, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali tizimini yaratish, ushbu sohada normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

ikkinchidan, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining ekin maydonlaridan samarali foydalanishdagi shaxsiy manfaatdorligi va mas'uliyatini oshirish, bu borada parlament, vakillik va jamoatchilik nazoratining ta'sirchan tizimini yaratish;

uchinchidan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ekin yer maydonlaridan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha vazifalarini aniq belgilash hamda ularning javobgarligini kuchaytirish;

to'rtinchidan, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini kuchaytirish;

beshinchidan, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ularning tayyorlov, qayta ishlash, ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi

tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarida zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish;

oltinchidan, "Tomorqa – qo'shimcha daromad manbayi!" shiorini qishloq aholisi orasida keng targ'ib qilish hamda yer egalarining kundalik faoliyatiga singdirish.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari agrosanoat kompleksining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanib, mamlakatimizda bunday turdagi xo'jaliklarni tashkil qilish va ularni qo'llab-quvvatlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha respublika komissiyasining 2018–2021-yillarda fermer xo'jaliklarini bosqichma-bosqich ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga aylantirish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi. 2022-yil 1-yanvardan boshlab, ko'p tarmoqli faoliyatni yo'lga qo'ymagan fermer xo'jaliklari bilan yer ijarasi shartnomalari qonun xujjatlariga muvofiq bekor qilinishi belgilab qo'yildi.¹⁰

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishni tashkil etishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ma'lum bir turini yetishtirish bilan ixtisoslashib qolmay, shu bilan bir qatorda, ularni qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish va turli xizmatlar ko'rsatish kabi ko'p tarmoqli faoliyatni tashkil etishi ularning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, tarmoqdagi mavjud iqtisodiy resurslardan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

Qishloq xo'jaligida har bir xo'jalik yuritish shaklining o'ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud. Ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida, odatda, ishchi kuchi, texnika, kapital qo'yilmalardan yanada samaraliroq foydalanish, ilmiy va texnologik taraqqiyot yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish uchun qulay sharoitlar

¹⁰<http://lex.uz/docs/3371644>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-oktabrdagi PF-5199-sonli "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

yaratiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ma’lum bir turini yetishtirishda moddiy va moliyaviy resurslardan to‘liq foydalanish orqali xo‘jalik faoliyatida yuqori natijalarga erishish mumkin. Biroq bunday xo‘jaliklarda bir yil mobaynida mehnat resurslari va mavjud agrotexnik vositalardan to‘liq va bir maromda foydalanishga erishish mumkin emas. Bundan tashqari, tabiiy ofatlar, bozor sharoitidagi o‘zgarishlar va boshqalardan zarar ko‘rish xavfi ortadi.”¹¹

“Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish, sanoat ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlari bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligidir.”¹²

Keyingi yillarda mamlakatimizda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini tashkil etish, ularning huquqiy maqomini shakllantirish hamda ularni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari o‘zi nima, ularning faoliyati qanday tashkil qilinadi degan savollarga mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijasida javob berilmoqda.

Jumladan, “ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi – fermer xo‘jaligi tashkil etilishi paytida yer uchastkalarini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasida belgilangan asosiy ixtisoslashuv yo‘nalishidan boshqa sohalarda ishlab chiqarishni (moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish) tashkil etib, mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan fermer xo‘jaliklari hisoblanadi”.¹³

¹¹Мпнаков И.А. Экономика сельского хозяйства. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2017.

¹²O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari restrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida"gi 972-sonli qarori. 2018-yil 29-noyabr.

¹³Xushmatov N., Kalimbetov X. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini tashkil etish qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi muhim yo‘nalish. Ilmiy-amaliy anjuman tezislari to‘plami. – Nukus: Qordu, 2015. -38-39 betlar.